O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRUVCHILAR UCHUN**

# SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: ____________________________________________ _____
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**
Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi:** **31**

## FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyoti*
*Blok 2: Tarix*
*Blok 3: Ingliz tili*
*Nemis tili*
*Fransuz tili*

Savollar kitobi raqami: **5296193**

**Toshkent – 2015**

## ONA TILI VA ADABIYOTI

**1.** Quyidagi gapda ega qaysi soʻz turkumi bilan ifodalangan?
**Har bir yangi narsada lazzat bor.**

A) *olmosh* B) *sifat* C) *ot* D) *ravish*

**2. Uzun bir yogʻoch topdi-da, asta olmani oʻziga tomon "hayday" boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yogʻoch uchi tegishi bilanoq suvga bir shoʻngʻib yana "qochib" qolardi.**
Ushbu gapda yordamchi soʻz turkumiga xos grammatik birliklar haqidagi barcha toʻgʻri fikrlar koʻrsatilgan javobni aniqlang.
1. Ushbu gapda 1 ta vazifadosh, 1 ta sof bogʻlovchi qatnashgan.
2. Ushbu gapda 2 ta kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi qatnashgan.
3. Ushbu gapda 1 ta sof, 1 ta vazifadosh koʻmakchi qatnashgan.
4. Ushbu gapda barcha yordamchi soʻz turkumlariga oid birliklar qatnashgan.

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 3, 4* C) *1, 3* D) *2, 3, 4*

**3. Bu manhus toj-u taxt... bu saltanat... insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi...**
Ushbu gapda fonetik oʻzgarish asosida yozilgan soʻzlarda ishtirok etgan til undoshlari haqida berilgan toʻgʻri hukmni toping.

A) *sirgʻaluvchi undoshlarning soni 4 ta*
B) *jarangli undoshlar yetakchi va koʻmakchi morfema tarkibida qoʻllangan*
C) *jarangli sirgʻaluvchi undoshlar soni 3 ta*
D) *portlovchi undoshlar soni 8 ta*

**4.** Qaysi javobda bir xil shakldagi qoʻshimchalardan hosil qilingan yasama sifatlar berilgan?

A) *iliq, qiliq, silliq* B) *sotqin, bosqin, joʻshqin*
C) *dumaloq, quvnoq, yarqiroq* D) *ochiq, tiniq, quruq*

**5.** Rauf Parfining istiqlol davridagi she'rlari nomi berilgan qatorni toping.

A) *"Adashgan ruh", "Munojot"*
B) *"Istigʻfor", "Oq va qora"*
C) *"Turkiylar", "Iqror"*
D) *"Ayolgʻu", "Boʻgʻzimdan sirqirar tovush – qon"*

**6.** Insongagina xos boʻlgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga koʻchirish san'ati qanday nomlanadi?

A) *tanosib* B) *tashxis* C) *timsol* D) *tashbeh*

**7. Jahonda nimaiki oq boʻlsa, unga ona suti timsol; nimaiki joʻshqin boʻlsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli boʻlsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat, mehridaryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol.**
Berilgan parchada nechta gapning egasi olmosh bilan ifodalangan?

A) *4* B) *6* C) *3* D) *5*

**8.** Quyida berilgan qoʻshimchalardan nechtasi turli soʻz turkumi doirasida omonimligini namoyon qila oladi?
**-i, -ch, -miz, -ng, -choq, -ik, -qin**

A) *7 tasi* B) *5 tasi* C) *4 tasi* D) *6 tasi*

**9.** Pushkinning "Bogʻchasaroy fontani", Lermontovning "Iblis" kabi asarlarini kim oʻzbek tiliga tarjima qilgan?

A) *A.Muxtor* B) *Fitrat* C) *U.Nosir* D) *Hamza*

**10. Shoshilish zoʻriqishga olib keladi. Qadamingni oʻrinsiz tezlashtirsang, qoqilib yiqilishing mumkin.**
Berilgan parchada nechta yasama soʻz mavjud?

A) *4* B) *2* C) *3* D) *1*

**11.** Sifatdosh otlashgan gapni toping.

A) *Yoqimli yoz shabadasi endigina qad koʻtarib kelayotgan yosh nihollarni tebratar edi.*
B) *Eshon otasining gapiga amal qilib, toʻrdan joy tegmaydigan, pokgakda choy tegmaydigan bir odam boʻlib yetishibdi.*
C) *Jimirlab oqayotgan daryo boʻyiga borib, yuz-qoʻllarini yuvib, bir-ikki qultum suv ichishdi.*
D) *Oʻz koʻzim bilan koʻrganlarimni, kechirganlarimni qalamga olgim kelib qoldi.*

**12.** *Uning ayollarga ehtiromi ular sharafiga barpo etilgan bogʻ-rogʻlar va nodir me'moriy yodgorliklarda ham aks etadi.*
Ushbu gapda nechta soʻz faqat tobe boʻlak vazifasini bajargan?

A) *3 ta* B) *6 ta* C) *4 ta* D) *5 ta*

**13. Och-yalangʻoch yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman.**
Gap tarkibida nechta soʻz birikmasi mavjud?

A) *3ta* B) *2ta* C) *4ta* D) *5ta*

**14. Sanodin oʻzga nav atlas toʻquyin,**
**Qish oʻrtada bahoriyot oʻquyin.**
**Kim ujmoh tur sening bazming binosi,**
**Hamisha yoz erur, jannat havosi.**
Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolagʻaviy tasvirlar yaratdi?

A) *Xorazmiy Muhammad Xoʻjabekka*
B) *Rabgʻuziy Nosiriddin Toʻqbugʻaga*
C) *Sayfi Saroyi Batxasbekka* D) *Xoʻjandiy Mahmudxonga*

**15. Nima deysan, ey gʻayur inson?**
**Gʻiybatlaring qildi meni qon.**
**Sen ham bir kun oʻtarsan, inon,**
**Mehr qolur, muhabbat qolur.** (Muhammad Yusuf)
Ushbu she'riy parchada fe'lning qaysi mayl shakl(lar)i ishtirok etmagan?
1) xabar mayli; 2) shart mayli; 3) buyruq-istak mayli

A) *faqat 2* B) *1, 3* C) *1 ,2, 3* D) *2, 3*

**16.** Qaysi xalq dostonida "Kaptarday boʻb yurgan qizlar" tasviri berilgan?

A) *"Ravshan"* B) *"Rustamxon"* C) *"Alpomish"*
D) *"Kuntugʻmish"da*

**17.** Qaysi soʻzlarga ikkita soʻz yasovchi morfema ketma-ket qoʻshilganda ikki xil fonetik oʻzgarishni kuzatish mumkin?
1) taroq, 2) yigʻi, 3) qiyin, 4) tarqa, 5) oʻyin, 6) sariq

A) *1, 2, 3, 4, 5, 6* B) *1, 2, 3, 4, 5* C) *2, 3, 5, 6*
D) *2, 3, 5*

**18.** *Abdulla Qahhor qalami bilan ming-minglab oʻquvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi.*
Berilgan gapda ostiga chizilgan soʻzda qaysi usulda ma'no koʻchgan?

A) *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa*
D) *vazifadoshlik*

**19.** *Odamlarning ma'naviy, madaniy, siyosiy maydonlarga tortish, har bir fuqaroning uni yoshidan qat'i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yoʻlimizdir.*
Berilgan gapdagi uslubiy xatolarni tuzatib, undagi qaratqich aniqlovchilar miqdorini aniqlang.

A) *3 ta* B) *4 ta* C) *5 ta* D) *2 ta*

**20.** Qaysi gapda paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik mavjud?

A) *Kech bo‘lsa ham uyda yolg‘iz qolgan onaizorini bir ko‘rib ko‘nglini xotirjam qilib ketishga ahd qildi.*
B) *O‘tmish merosimizni o‘rganishga, ota-bobolarimizning boy tajribalarini ko‘zdan kechirishga azm qildi.*
C) *Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx ayonlariga qarab: “Qilichni emas, aqlni ishga solmoq kerak”, – dedi.*
D) *Birozdan so‘ng hamma tinchib, tashqaridan tanbur ovozi yangradi.*

**21.** *Shuni bilingki, tog‘lar ham yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug‘lari toabad zavol bilmaydi.*
Berilgan gap murakkab qo‘shma gapning qaysi turiga kiradi?

A) *bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap*
B) *qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap*
C) *aralash murakkab qo‘shma gap*
D) *bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap*

**22.** Qaysi javobda keltirilgan so‘zlar tarkibida ikkita so‘z yasovchi ishtirok etgan?

A) *eslaganlik, yamoqchilik, yig‘loqi*
B) *yarqiroq, atama, qiynoq*
C) *changitmoq, tinchimoq, qiynoq*
D) *sanoqsiz, o‘ynoqi, tinimsiz*

**23.** “Avesto”da Zardusht she’rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar qanday atalgan?

A) *visparad* B) *gohlar* C) *vendidod* D) *yashtlar*

**24.** **Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘paysa, xalqning do‘stligi, ularning yurtga mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.**
Ushbu gapdagi sodda yasama so‘zlar tarkibida nechta ko‘makchi morfema qatnashgan?

A) *7 ta* B) *5 ta* C) *4 ta* D) *6 ta*

**25.** *Qilibdur mahliqolarning yuzini*
*Latofat mus’hafig‘a oya navro‘z.*
Ushbu bayt muallifi va unda qo‘llangan she’riy san’at turini aniqlang.

A) *Ogahiy; tashbeh* B) *Furqat; tashxis*
C) *Furqat; tanosib* D) *Ogahiy; tazod*

**26.** Qaysi gapda ma’no jihatdan ravishning ikki turi qatnashgan?

A) *Ular yerni kovlab kirolmabdilar, allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.*
B) *Bular piyoda asta-sekin O‘rdaga bordilar.*
C) *– Keyin u yoqqa o‘tamiz, – deb o‘ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi.*
D) *Shu payt uydan – yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi.*

**27.** 1. Borliq jim// har bitta darchada zangor shu’lalar porlaydi.
2. Hasharda hamma ishladi// yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi.
3. Ahror ovoz egasini tanidi// Hasan naychi ekan.
4. Suv keldi// nur keldi.
5. Albatta, go‘zallik ham har xil bo‘ladi// kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go‘zal, kunduzi guldan gulga qo‘nib yurgan kapalak ham go‘zal...
Qaysi gap(lar)dagi shartli belgilar o‘rnida tire qo‘yiladi?

A) *2* B) *4* C) *3, 5* D) *1, 2, 4*

**28.** **Otamday rozi bo‘l, onamday sevgin,**
**Men ham senikiman, o‘ksik qizingman.**
**Bag‘ringda ming yillik toshlar to‘sig‘in**
**Yorib chiqayotgan bir ildizingman!**
Berilgan she’riy parchada nechta sodda gap mavjud?

A) *5* B) *6* C) *4* D) *3*

**29.** Janni Rodarining “Uchtadan oxiri bor ertaklar” turkumiga mansub ertaklari to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) “Sehrli nog‘ora”; 2) “Kumush tangacha”; 3) “Ayyor Buratino”; 4) “Bronza to‘ng‘iz”; 5) “Sahrodagi uy”; 6) “Milanda yog‘gan shlyapa yomg‘iri”; 7) “Rinaldoning sarguzashtlari”

A) *1, 2, 3, 4, 5* B) *1, 3, 4, 5* C) *1, 3, 5, 6, 7*
D) *1, 2, 3, 5, 6, 7*

**30.** Adabiyotimizda birinchi bo‘lib voqeiy tarixiy doston yaratgan ijodkor kim?

A) *Muhammad Solih* B) *Sayfi Saroyi*
C) *Yusuf Xos Hojib* D) *A. Navoiy*

**31.** “Qissasi Rabg‘uziy”da sahobalar payg‘ambar (a.s)ning o‘z ummati uchun, butun insoniyat uchun qilgan xizmatlarini necha qismda, qaysi san’at asosida sanaydilar?

A) *20 qism, saj* B) *19 qism, tadrij* C) *15 qism, tadrij*
D) *21 qism, hasbi hol*

**32.** Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida portlovchi tovush tushishi kuzatilgan?

A) *Odamlar chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.*
B) *Sovuqning shashti pasayib, quyosh yana nur sochdi.*
C) *Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo‘lmaydi.*
D) *Mehnat qilsang, ko‘nglingga yorug‘lik tushadi.*

**33.** **“Romanning kompozitsion tuzilishi boshqa asarlardan keskin farq qiladi, unda go‘yo bir-biri bilan bog‘lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar, hatto qissalar aralash tartibda kelaveradi, ularda tasvirlangan voqea-hodisalar ham zamon, vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo‘ysunmaydi. Ammo bu "g‘alatilik" faqat tashqi tomondan qaraganda shunday bo‘lib, barcha voqelar bir qahramon taqdiriga borib taqaladi"**
Ushbu fikr quyidagi qaysi asar haqida?

A) *"Chinor"*
B) *"Yetti zog‘ora"*
C) *"Navoiy"*
D) *"Gulliverning sayohatlari"*

**34.** Imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang.
1) sozovor; 2) talofat; 3) rahmat; 4) xoxlamoq; 5) taqdim; 6) tag‘dir

A) *3, 4* B) *1, 2* C) *1, 2, 4, 6* D) *1, 2, 3, 6*

**35.** *Kerak ishq ahli qul bo‘lmoq bu so‘zga:*
*"Ki shahliq o‘zgadur, oshiqlik o‘zga".*
Ushbu misralar qaysi qahramon haqida?

A) *Shoh G‘oziy* B) *Bahrom* C) *Navdar* D) *Xusrav*

**36.** Quyida berilgan tez aytishlarning qaysi birida sifat turkumiga oid so‘z egani aniqlab kelgan?

A) *Norning nordon anori narida.*
B) *O‘tkir o‘tkir o‘roqda o‘t o‘rdi.*
C) *Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.*
D) *Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.*

## TARIX

**37.** Turk xoqonligining Sosoniylar va Vizantiya bilan yaqinlashuviga sabab bo‘lgan siyosiy vaziyatni aniqlang.

A) *Turk hoqonligining ikkiga bo‘linib ketishi*
B) *Sosoniylar va Vizantiya bilan savdo-sotiq aloqalarining manfaatliligi*
C) *Bu davlatlar o‘rtasida diniy yaqinlikning mavjudligi*
D) *Eftallar bilan to‘qnashuvning muqarrarligi*

**38.** Quyidagi qaysi davlatlarning boshliqlari hozirgi kunda ham Buyuk Britaniya qirolichasi tomonidan tayinlanadi?
1) Janubiy Afrika Ittifoqi; 2) Kanada; 3) Janubiy Irlandiya; 4) Avstraliya; 5) Yangi Zelandiya; 6) Hindiston

A) *1, 3, 6* B) *2, 3, 6* C) *2, 4, 5* D) *1, 3, 5*

**39.** Xiva xonlari kutubxonalarida qachondan xattotlik, husnixat maktabi shakllandi?

A) *XIV asrda* B) *XV asrda* C) *XVII asrda* D) *XVI asrda*

**40.** Qo'qon xonligida katta shaharlar hokimligiga kimlar tayinlanar edi?

A) *xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari*
B) *shaharning eng boy va obro'-e'tiborli amaldorlari*
C) *xonlikdagi yirik qabila boshliqlari*
D) *xon oldidagi xizmatlari evaziga loyiq deb topilgan amaldorlar*

**41.** Amir Doniyolbiy davrida qaysi viloyatlarning mustaqillikka intilishlari kuchaygan?

A) *Shahrisabz, Qarshi, Hisor, Urgut*
B) *Qarshi, Balx, Hisor, O'ratepa*
C) *Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa*
D) *Balx, Hisor, Boysun, Qarshi*

**42.** Liviya Italiya mustamlakasiga aylangan yilda quyidagi voqealardan qaysi biri sodir bo'lgan?

A) *Italiya Fransiyaning Marokashga bo'lgan huquqlarini tan oldi*
B) *Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o'zini Turkiyadan to'la mustaqil deb e'lon qildi*
C) *Panama kanali ochildi*
D) *Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida Albaniya mustaqillikka erishdi*

**43.** G'arbiy Rim imperiyasi qulagan vaqtda sosoniylar davlati hukmdori kim bo'lganligini aniqlang.

A) *Shopur II* B) *Pero'z* C) *Kubod* D) *Anushervon*

**44.** Ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlangan yilda quydagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

A) *Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Amerika Respublikasiga birlashdi*
B) *Kushka shahri bosib olindi*
C) *Xitoy-Yaponiya urishi bo'lib o'tdi*
D) *Berlin kongressi chaqirildi*

**45.** O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti; 3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti

A) *2, 3, 4* B) *3, 4, 5* C) *1, 3, 5* D) *1, 2, 3*

**46.** 1512-yilda kimning ra'yiga ko'ra Samarqand Ko'chkunchixonga, Toshkent viloyati Suyunchxo'jaga, Buxoro va uning atroflari Ubaydullo Sultonga doimiy merosiy mulk qilib berildi?

A) *Boyshayxning* B) *Jonibek Sultonning* C) *Shayboniyxonning* D) *Xo'ja Mahmud Sultonning*

**47.** Qoraqalpoq xalqining jiddiy tus olgan va qariyb o'n yil davom etgan qo'zg'oloni rahbarini aniqlang.

A) *Oydo'stbiy* B) *Ernazarbiy* C) *Bobo Go'klan* D) *Maman botir*

**48.** Fransiya qirollarining an'anaviy toj kiyish marosimi qaysi shaharda o'tkazilgan? (O'rta asrlar)

A) *Ruan shahri* B) *Parij shahri* C) *Reyms shahri* D) *Orlean shahri*

**49.** Buyuk Britaniyaning qaysi bosh vazir boshchiligidagi hukumati kamomadsiz budjetni uzoq vaqt ushlab turish maqsadida daromadidan qat'i nazar 18 yoshdan yuqori barcha fuqarolarni soliqqa tortish siyosatini qo'lladi?

A) *J. Meyjor* B) *G. Vilson* C) *M. Tetcher* D) *G. Braun*

**50.** Buyuk Britaniyada ikkinchi parlament islohoti o'tkazilgan yilda sodir bo'lgan voqealarni toping.
1. Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan Efiopiyada imperator Kasa hokimiyati ag'darildi;
2. Tokugava sulolasining oxirgi sioguni hokimiyatdan voz kechdi;
3. Liberiya ozod davlati tuzilganligi e'lon qilindi;
4. Otto fon Bismark Germaniyada mavjud davlatlarning Prussiya bilan "Shimoliy Germaniya Ittifoqi"ni tuzish haqida shartnoma imzolanishiga erishdi.

A) *2, 4* B) *3, 4* C) *1, 3* D) *1, 2*

**51.** Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm kirdikorlari fosh etilib, g'alaba qozonishga bo'lgan ishonch aks ettirilgan asarlarni mualliflari bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.
1) "Maktub"; 2) "Jangchi Tursun"; 3) "Ona kuzatmoqda"; 4) "Nayzamiz";
a) Sulton Jo'ra; b) Uyg'un; c) Maqsud Shayxzoda; d) Hamid Olimjon

A) *1-b, 2-d, 3-c, 4-a* B) *1-a, 2-b, 3-c, 4-d* C) *1-b, 2-d, 3-a, 4-c* D) *1-d, 2-c, 3-b, 4-a*

**52.** Turkiston jadidlarining fikricha mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda zarur hisoblangan choralarni aniqlang.
1) yer, suv, yerusti va yerosti boyliklarini Turkiston xalqining umumiy boyligi deb e'lon qilish; 2) turli ijtimoiy va ma'rifiy jamiyatlar tuzish; 3) barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash; 4) zavod va fabrikalar qurish, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarish; 5) mustamlakachilikka qarshi kurash dasturini yaratish; 6) dehqonlar ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirish

A) *2, 3, 4* B) *2, 5, 6* C) *1, 3, 4* D) *1, 5, 6*

**53.** Fransiyada Leon Blyum hukumati qabul qilgan qarorlar to'g'ri korsatilgan javobni toping.
1) ish haqini oshirish; 2) soliqlarni kamaytirish; 3) 40 soatlik ish haftasini joriy qilish; 4) korxonalarda jamoa shartnomalari tuzish; 5) jarimalarni bekor qilish; 6) kasaba uyushmalari huquqlarini himoya qilish; 7) ishchilarga nafaqa belgilash; 8) haq to'lanadigan ta'til berish

A) *1, 4, 6, 7, 8* B) *1, 2, 3, 7, 8* C) *1, 2, 4, 5, 7* D) *1, 3, 4, 6, 8*

**54.** Antanta davlatlari tomonidan mustaqil Turkiya Respublikasi tan olingan anjuman va uning vaqti to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) *Lozanna konferensiyasi, 1923-yil*
B) *Vashington konferensiyasi, 1921-yil*
C) *Gaaga konferensiyasi, 1929-yil*
D) *Lokarno konferensiyasi, 1925-yil*

**55.** 1878-yildagi Berlin kongressida Bolgariya masalasida qabul qilingan qaror to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) *Bolgariyaga Turkiya qo'l ostidagi yerlarning bir qismi qo'shib berish*
B) *Bolgariya ega bo'lgan hududlar o'zgarishsiz qoldirish*
C) *Bolgariya ega bo'lgan hududlarni qisqartirish*
D) *Bolgariyaning davlat mustaqilligi tugatish*

**56.** O‘zbekiston brezent ishlab chiqaruvchi “Kenaf” qo‘shma korxonasini qaysi davlat hamkorligida tashkil etgan?
A) *Chexiya* B) *Gretsiya* C) *Vengriya* D) *Italiya*

**57.** Quyida berilgan javoblardan tarixiy to‘g‘ri javobni toping.
A) *1899-yilda ingliz bur urushi tugallandi.*
B) *Eronda 1906-yilgi saylovlarda 4 ta ijtimoiy qatlam saylov huquqiga ega bo‘ldi.*
C) *1907-yilda Eron taxtiga Muhammad Alishoh o‘tirdi.*
D) *1889-1915-yillarda Qizil dengiz bo‘yi va Somali Buyuk Britaniya tomonidan egallandi.*

**58.** Qaysi davrdan boshlab Rossiya imperiyasining o‘zbek xonliklari bilan bo‘lgan munosabatlarida tazyiq o‘tkazish ustunlik qila boshladi?
A) *XVIII asrdan* B) *XVI asrdan* C) *XVII asrdan* D) *XIX asrdan*

**59.** "Birlik va taraqqiyot" partiyasi a’zolarining yevropacha nomini belgilang.
A) *panislomistlar* B) *yosh turklar* C) *panturklar* D) *tolibonlar*

**60.** Qachondan boshlab Rimda qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi ma’lum bo‘ldi?
A) *mil. II-III asrda* B) *mil.av. II-I asrlarda* C) *mil. III asrda* D) *mil. I-II asrlarda*

**61.** 1856-yilda imzolangan qaysi shartnoma Turkiya ustidan amalda G‘arb davlatlarining “homiyligini” o‘rnatdi?
A) *Parij tinchlik shartnomasi* B) *Andrianopol shartnomasi* C) *London shartnomasi* D) *Sevr shartnomasi*

**62.** Quyidagi badiiy asarlarni ular yaratilgan qadimgi davlatlar bilan moslab ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) "Gilgamish haqida afsona"; 2) "Iliada"; 3) "Ramayana"; 4) "Isida va Osiris haqida afsona"; a) Mesopotamiya; b) Yunoniston; c) Hindiston; d) Misr
A) *1-a; 2-b; 3-c; 4-d* B) *1-d; 2-c; 3-b; 4-a* C) *1-b; 2-a; 3-c; 4-d* D) *1-c; 2-d; 3-a; 4-b*

**63.** XIX asrda Afrikadagi eng muhim qul savdosi bazalari quyidagi qaysi davlatning mustamlakasi edi?
A) *Ispaniya* B) *Fransiya* C) *Portugaliya* D) *Angliya*

**64.** Buxoroda amirlik taxti Shohmurod qo‘liga o‘tgan yili tarixda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) *Afg‘oniston shohi Ahmadshoh "Durri-Duron" unvonini oldi.*
B) *Koreyada "Qonunlarning buyuk to‘plami" nomli hujjat tuzildi.*
C) *Eronda Qojarlar hukmronligi boshlandi.*
D) *Qrim xonligi Rossiya tarkibiga qo‘shib olindi.*

**65.** 1954-yilning aprel-iyul oylarida Jenevada bo‘lib o‘tgan Konferensiya qanday masalaga bag‘ishlanganligini aniqlang.
A) *Hindixitoyda tinchlik o‘rnatish*
B) *Germaniyani yagona davlatga birlashtirish*
C) *Yadro qurolidan foydalanish va uni tarqatishni man etish*
D) *Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik*

**66.** Surunkasiga 4 marotaba AQSh prezidentligiga saylangan F.Ruzvelt yashagan yillarni ko‘rsating.
A) *1880-1946-yillar* B) *1882-1945-yillar* C) *1900-1945-yillar* D) *1890-1948-yillar*

**67.** Quyidagi mualliflardan qaysi biri o‘z asarida o‘zbeklarni “aql idrokli, suhbati yoqimli va o‘tkir, qat’iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg‘on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar” deb ta’riflagan?
A) *N.Muravyov* B) *N.Vasilevskiy* C) *N.Ignatyev* D) *G.Danilevskiy*

**68.** Ikkinchi jahon urushi boshlangandan o‘tgan ikki yarim yil orasidagi nemislarning birinchi yirik mag‘lubiyati qaysi shaharda bo‘lib o‘tdi?
A) *Moskva* B) *Stalingrad* C) *Kaluga* D) *Kursk*

**69.** Qaysi davrda Xorazm hududlarida bir necha sug‘orma dehqonchilik vohalarini boshqargan, iqtisodiy-siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lgan hokimliklar tashkil topgan?
A) *mil. av. III asr* B) *III asr* C) *mil. av. VII-VI asrlar* D) *X asr*

**70.** Nercha shartnomasi imzolangan yilni aniqlang.
A) *1789-yil* B) *1689-yil* C) *1698-yil* D) *1693-yil*

**71.** Mo‘g‘ullar davrida undirilgan "shulen" nomli oziq-ovqat solig‘i davlat xazinasi uchun olingan bo‘lib, uning miqdori qacha bo‘lgan?
A) *har yuz bosh chorvadan bir bosh jonliq*
B) *sotilgan mahsulotning 1/10 qismi*
C) *har bir podadan ikki yashar qo‘y, har ming otdan bir biya*
D) *olingan hosilning 1/10 ulushi*

**72.** Quyidagi qaysi voqeaning sodir bo‘lish vaqti Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasida bir necha bor o‘zaro to‘qnashuvlar bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi?
A) *Muhammad Tug‘luqning Dehli sultonligi taxtiga o‘tirishi*
B) *Angliyada qo‘shimcha jon solig‘ining joriy qilinishi*
C) *Xitoyda Min imperiyasining tashkil topishi*
D) *Choson qirolligida Li sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi*

## INGLIZ TILI

**73.** Choose the best answer.
They wanted to know what decision ... the previous week.
A) *we made* B) *had we made* C) *we had made* D) *did we make*

**74.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
Rude felt tired when he was coming home from the store because the bag of groceries ... too heavy for him to carry.
A) *is* B) *was* C) *were* D) *are*

**75.** Choose the correct answer.
You ... knock before you come into my room.
A) *must* B) *can* C) *ought* D) *may*

**76.** Choose the right answer.
It is uncommon to find ... good crops in this section of the country.
A) *as* B) *so* C) *far* D) *such*

**77.** Choose the correct answer.
The weather forecast said that it might rain this afternoon. If it does, we’ll have to put ... the tennis.
A) *in* B) *down* C) *on* D) *off*

**78.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
They climbed to the top of the mountain ... they had a picnic.
A) *that* B) *when* C) *where* D) *which*

**79.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
It’s been a really hot summer, ...?
A) *isn’t it* B) *didn’t there* C) *wasn’t it* D) *hasn’t it*

**80.** Choose the correct answer.
Whenever ... a thunder-storm, the cat hides under the bed.
A) *there was* B) *there's* C) *there will be* D) *there'll be*

**81.** Choose the best answer.
Mother watched the girl ... in the yard.
A) *playing* B) *to play* C) *plays* D) *played*

**82.** Choose the correct answer.
There's ... coffee left, if anyone wants some.
A) *few* B) *a few* C) *a little* D) *little*

**83.** Choose the correct answer to the sentence.
He had his car ... last week, now he can go travelling.
A) *repairing* B) *repaired* C) *to repair* D) *repair*

**84.** Choose the correct answer.
Your little robot dog will even bark if you ... sound files into his body.
A) *are put* B) *had put* C) *put* D) *will put*

**85.** Choose the best answer.
I wanted Dill and Jam to stay but ... of them agreed.
A) *all* B) *both* C) *either* D) *neither*

**86.** Choose the right word and complete the sentence.
When I finished reading the article I was ... outraged.
A) *absolute* B) *absolutely* C) *fulled* D) *full*

**87.** Choose the best answer.
The train ... arrive at platform two.
A) *is to* B) *must* C) *has to* D) *can*

**88.** Choose the correct answer.
He ... from police custody by bribing a warder.
A) *is understood having been escaped*
B) *is understood having escaped*
C) *is understood to have escaped*
D) *is understood have escaped*

**89.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
After describing the situation on the market in general, the sales manager went on ... about details.
A) *talked* B) *talking* C) *to have talked* D) *talk*

**90.** Choose the right answer.
Some people are lazy, ... are energetic.
A) *the other* B) *the others* C) *others* D) *other*

**91.** Choose the correct answer.
How do you get ... your husband's family?
A) *ahead* B) *around* C) *on with* D) *along*

**92.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
Suzanne: "Don't forget to call me, Jack".
Suzanne asked Jack ... forget to call him.
A) *that she didn't* B) *not to* C) *do not to*
D) *that she doesn't*

**93.** Choose the correct answer.
It looks like ... glass in your bedroom window is cracked.
A) *the* B) *an* C) *a* D) -

**94.** Choose the answer which correctly completes the sentence.
The BBC channels offer a mixture of drama, light entertainment, films, sport, children's, religious and ... programmes, news and current affairs, and documentaries.
A) *educational* B) *educated* C) *educate* D) *educator*

Read the text. Then choose the correct answer for each question below (95-98).

I am one of those people who would like to see changes made to current types of punishment in the criminal justice system. It would surely be better to sentence minor offenders to community service of some kind, rather than giving them fines or prison sentences. That way they would at least do something useful, and the justice system would also save money. I would also imagine that this would work better for young offenders, as they wouldn't feel 'cool' or fashionably 'bad' while they helped an old person or cleaned the streets. Of course, a system of this kind wouldn't work effectively without some thought being to the tasks which offenders were asked to perform. There would obviously be more benefit to be gained from work which involved responsibility, and where offenders had to mix with others and communicate with them. Some people also think that offenders should meet and talk to their victims, and be more involved with compensating and even helping them. This would certainly help to make offenders realize the consequence of their actions, and that might well stop them offending again. Whether it would work for all offenders and for all offences is another matter, but again I believe that this would stop young offenders from becoming career criminals. And that would be an important change for the better.

**95.** What punishment does the author recommend for the offenders committing negligible crimes?
A) *Higher fines must be required which may support the justice system.*
B) *It would be better to introduce harsher sentences.*
C) *They should be concerned with community service.*
D) *The periods of imprisonment need to be changed.*

**96.** The author states that because of community service ...
A) *the justice system would earn a great amount of money.*
B) *young offenders would not learn to respect elderly people.*
C) *offenders would not easily understand their mistake.*
